**SHARTNOMA №10**
(Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish)

Toshkent sh. "25" oktyabr 2022yil

Olmaliq shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (keyingi o'rinlarda Buyurtmachi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor K.Rahimovbir tomondan va **"CONSTRUCTION MEASURING COMPANY" MCHJ**(keyingi o'rinlarda Bajaruvchi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor**I.To`rabekova**ikkinchi tomondan, joriy ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarini bajarishga doir amaldagi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli qonuniga asosan xarid.uzex.uz maxsus axborot portal orqali (Lot raqami 22110012161556) e'lon qilingan va Olmaliq shahr Obodonlashtirish boshqarmasixarid komissiyasining 2022 yil 19oktyabrdagi bayonnomasiga asosan quyidagi shartnomani tuzdilar:

**1.Shartnoma predmeti va muddati.**

1.1. Bajaruvchi **Toshkent viloyati Olmaliq shahar Muqumiy Mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi Muqumiyko`chasini asfaltlashuchun loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chiqish va ijobiy ekspertiza xulosasini olish**majburiyatini, Buyurtmachi esa uni qabul qilib olish majburiyatini oladi.

1.2. Bajaruvchi loyiha-smeta xujjatlari ishlarini O'zbekiston Respublikasida belgilangan huquq va qonun talablariga asosan amalga oshiriladi.

1.3. Bajaruvchi shartnoma bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqadi, shu jumladan uchinchi shaxsni yollagan xolda belgilangan tartibda loyiha-smeta xujjatlarini davlat ekspertizasidan o'tkazadi.

1.4. Bajaruvchi loyiha-smeta hujjatlarini Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan birlamchi ma'lumotlar asosida shartnoma va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xuzuridagi Respublika G'aznachiligi yoki uning xududiy boshqarmalarida ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab shartnomaning 2-ilovasi "Bajarish va moliyalashtirish jadvali"da belgilangan muddatlarda bajaradi.

1.5. Bajaruvchi loyiha-smeta xujjatlari ishlari bo'yicha davlat va zarur bo'lganda boshqa tegishli ekspertiza xulosasini olgandan so'ng, ishlarni bajarish muddati davrida 3 (uch) nusxada mazkur loyiha va qidiruv ishlari xujjatlarini Buyurtmachiga taqdim etishi kerak.

1.6. Ish jarayonida kelishilgan asosiy loyihaviy yechimlarni buyurtmachiga topshiriladi.

**2.Shartnoma bahosi va to'lovlar qoidalari.**

2.1. Shartnomaning bahosi shartnoma taraflarining kelishuvi (1-ilova)ga asosan QQS bilan**17 500 000 (o`n yeti million besh yuz ming)** so'mni tashkil etadi va mazkur shartnomaning 2-ilovasidagi "Bajarish va moliyalashtirish jadvali"ga muvofiq bajariladi.

2.2. Buyurtmachi shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika G'aznachiligi yoki uning xududiy boshqarmalarida ro'yxatdan o'tgandan so'ng 5 kun mobaynida shartnoma bahosining 30 foiz miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.

2.3. Shartnoma bo'yicha qolgan mablag', Bajaruvchi loyiha-smeta xujjatlari ishlari davlat va zarur bo'lganda boshqa tegishli ekspertizasi xulosasini olib, Buyurtmachiga taqdim etgandan so'ng, topshirish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtirilib, 15 kun mobaynida dastlab to'langan avans mablag'i (shartnoma bahosining 30 foizi miqdorida) ushlab qolinib, Buyurtmachi tomonidan qabul qilingan hisob-faktura (schyot-fakturaga asosan) moliyalashtiriladi.

2.4. Shartnomaning bahosi uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlar qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;
- ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda.

Dastlabki hisoblangan smeta hujjatlariga ekspertiza xulosasi olingandan so'ng, loyiha-smeta hujjatlari bahosi (mahalliy byudjetdan moliyalashtirilganda Toshkent shahar moliya boshqarmasi) Toshkent shahar va tuman (shahar) xalq deputatlari qarorlariga yoki Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan manzilli ro'yxatga asosan Buyurtmachi va Bajaruvchi roziligi bilan zaruratga ko'ra ushbu shartnomaga qo'shimcha kelishuv imzolash yo'li bilan o'zgartirish kiritish mumkin.

**3. Tomonlar majburiyatlari.**

3.1. Buyurtmachi barcha ishlar bajarilib bo'lingandan keyin belgilangan narxning hammasini Bajaruvchiga to'lashi yoki ishlarining ayrim bosqichlari tugatilganidan keyin narxning tegishli kismini to'lashi, tayyorlangan loyiha-smeta xujjatlarining kamchiliklari borligi munosabati bilan uchinchi shaxs tomonidan Buyurtmachiga nisbatan qo'zg'atilgan davo yuzasidan ishda qatnashishiga Bajaruvchini jalb qilishi shart.

3.2. Buyurtmachi ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan birlamchi ma'lumotlarni (nuqsonlar qaydnomasi yoki ijro hujjatlari, pudrat tashkilotining o'rtacha ish haqi, ishlatiladigan

nashinalar, mexanizmlar va texnik ko'rsatkichlarga ega transport vositalari, ularning ishlash xarajatlari ko'rsatkichlari, pudratchining boshqa xarajatlarini) taqdim qiladi.

3.3. Bajaruvchi Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan birlamchi ma'lumotlarni 10 (o'n) ish kuni moboynida o'rganib chiqishi hamda berilgan ma'lumotlarda kamchiliklar aniqlansa Buyurtmachiga ma'lum qilishni o'z zimmasiga oladi.

Agar Bajaruvchi Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan birlamchi malumotlarda aniqlangan kamchiliklarni, 10 (o'n) ish kuni muddat ichida Buyurtmachiga ma'lum qilmasa, ma'lumotlar qabul qilingan deb xisoblanadi va bunday xolat Bajaruvchi ishlarini bajarish muddatini o'zgartirishga asos bo'la olmaydi.

3.4. Bajaruvchi loyiha-smeta ishlaridagi kamchiliklar uchun, shu jumladan keyinchalik qurilish jarayonida, shuningdek tayyorlangan loyiha-smeta xujjatlari va bajarilgan qidiruv ishlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan obyektni ishlatish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgar bo'ladi. Agar loyiha-smeta xujjatlari yordamchi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsa kamchiliklar aniqlangan taqdirda Bajaruvchi, yordamchi tashkilot bilan birga ishlab chiqilgan loyiha-smeta xujjatlari uchun to'liq javob beradi va Buyurtmachining talabi bilan loyiha-smeta xujjatlarini bepul qayta ishlab chiqish va shunga muvofiq zarur qo'shimcha ishlarni bajarishi shart.

3.5. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lov o'z vaqtida o'tkazilmagan xolda yoki dastlabki ma'lumotlarni taqdim qilish kechiktirilganda ishlarni tugallash muddati to'lov yoxud taqdim kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

3.6. Bajaruvchi loyihaning asosiy yechimlarini Buyurtmachi bilan birgalikda tegishli idoralar va tashkilotlar bilan kelishiladi.

### 4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi.

4.1. Loyiha-smeta xujjatlari ishlari bajarilishining alohida bosqichi va shartnoma bo'yicha belgilangan jami ishlar tugagandan so'ng Bajaruvchi Buyurtmachiga ishlarni topshirish - qabul qilish dalolatnomasi bilan loyihalash uchun topshiriqda ko'zda tutilgan hujjatlar to'plamini topshiradi.

4.2. Buyurtmachi ishlarni topshirish - qabul qilish dalolatnomasi va mazkur shartnomaning 4.1- bandida ko'rsatilgan hisobot hujjatlarini olgandan so'ng 10 (o'n) kun mobaynida ishlarni qabul qilish va Bajaruvchiga imzolangan topshirish va qabul qilish dalolatnomasini yoki ishlarni qabul qilmaslikning asoslangan rad javobini yuborishni o'z zimmasiga oladi.

Agar Buyurtmachi ishlarni qabul qilgan kundan boshlab 10 (o'n) kun muddat ichida Bajaruvchiga kamchiliklar ko'rsatilgan ishlarni qabul qilmaslik rad javobini yubormasa, ishlar qabul qilingan hisoblanadi va bunday holatda Buyurtmachi ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolab, bir nusxasini Bajaruvchiga qaytarishi shart.

4.3. Buyurtmachi ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan holda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

4.4. Agar loyiha-smeta xujjatlari ishlarini bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun mobaynida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart.

4.5. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga loyiha-smeta xujjatlari bo'yicha xulosa uchun murojat qilishi mumkin.

### 5. Korrupsiyaga qarshi shart

5.1.Tomonlar:

Tomonlar, ularning afillangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish soxasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlari talablarining buzulishiga olib kelinadigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni vada qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti xarakatlari/xarakatsizliklarini sodir etmaydilar.

Tomonlar, ularning afillangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarini beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi tomon foydasiga qandaydir xatti xarakatlarni/ xarakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan vos kechadilar deb ma'lum qiladilar.

5.2.. Tomonlar ushbu ilovaning 5.1 bandidagi talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubxalar yuzaga kelgan holda, tegishli tomon bu haqda ikkinchi tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish soxasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa amaldagi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham habardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

### 6. Konfidentsial ma'lumotlarni himoyalash.

6.1. Loyiha-smeta xujjatlari ishlarining bajarilishi davrida Bajaruvchi o'zi konfidentsial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni Buyurtmachidan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

**7. Nizolarni xal etish.**

7.1. Shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan nizolarni taraflar o'zaro muzokara yo'li bilan hal etadi. Muzokara natijasida kelishuvga kelinmagan taqdirda nizolar taraflar tomonidan Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi berish va ishni sudda ko'rib chiqilishi natijasida hal qilinadi.

**8. Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish.**

8.1. Mazkur shartnomaga qo'shimcha bitim ko'rinishidagi o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda qilingan hamda tomonlar (yoki tomonlar nomidan vakillar) imzolagan holdagina G'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin yuridik kuchga ega bo'ladi.

8.2. Shartnoma taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin. Shartnoma o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuvi yozma shaklda amalga oshiriladi. Shartnomani bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yoki shartnomaning shartlarini bir taraflama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

8.3. Bir taraf shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdan rad javobi olganidan keyingina shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

**9. Fors-major.**

9.1. Fors-major vaziyatlari paydo bo'lishi munosabati bilan mazkur shartnomadagi tomonlar majburiyatlari butunlay bajarilmasa yoki qisman bajarilsa, majburiyatlarni bajarish muddatlari bunday vaziyatlar ta'sir etishi vaqtiga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

**10. Qo'shimcha shartlar.**

10.1. Bajaruvchi Loyiha-smeta xujjatlari ishlarini muddatidan oldin bajarganida, Buyurtmachi uni Shartnomaning 4-bandiga asosan qabul qiladi va to'la to'lovni amalga oshiradi.

10.2. Bajaruvchi Shartnoma shartlarini bajarish uchun, Shartnomada belgilangan muddatlarga rioya qilinishini inobatga olgan holda hamda Buyurtmachi bilan kelishilgan xolda, yordamchi tashkilotlarni jalb qilishi mumkin.

10.3. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirilganda shartlashilgan xaqi kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 20 foizidan oshmasligi lozim.

10.4. Bajaruvchi tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash o'z vaqtida bajarilmay majburiyatlar buzilgan bo'lsa, Bajaruvchi Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 20 foizidan oshmasligi lozim.

10.5. To'langan penya taraflarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.6. Shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va har ikkala nusxasi ham bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi.

10.7. Shartnoma 31.12.2022 yilga qadar amal qiladi.

10.8. Shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

1-ilova - Shartnoma bahosining kelishuvi bayonnomasi;

2-ilova - Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishni bajarish va moliyalashtirish jadvali.

**10. Tomonlarning manzili va hisob raqamlari**

| "Buyurtmachi" | "Bajaruvchi" |
|---|---|
| **Olmaliq shahar Obodonlashtirish boshqarmasi** | **CONSTRUCTION MEASURING COMPANY** |
| Toshkent viloyati Olmaliq shaxri,<br>Olmaliq ko'chasi, 2-uy,<br>Sh/x: 401722860172404704520110006<br>INN: 200 603 271<br>O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachiligining Amaliyot Boshqarmasi<br>x/r: 2340 2000 3001 0000 1010<br>MFO 00014 INN 201 129919 | г.Ташкент М-Улугбекский р-н<br>ул.М.Юсуф дом-56 Бузбозор 1 тор 30<br>Tel: +99871-2683945<br>Х/г: 2020 8000 6008 3966 3001<br>в АКБ «Капитал банк» М-Улугбекский ф-л<br><br>INN: 305 287 288<br>MFO: 01018 |
| Rahbar ____________ K.Rahimov | Direktor ____________ I.To`rabekova |

2022-yil «25» oktyabrdagi
10-sonli shartnomaga 1 - ilova

**Shartnoma bahosini kelishuvi**

**B A YO N N O M A S I**

Biz, kuyida imzo qo‘yuvchilar: **Toshkent viloyati Olmaliq shahar Muqumiy Mahalla fuqarolar yig’ini hududidagi Muqumiy ko`chasini asfaltlash uchun loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chiqish va ijobiy ekspertiza xulosasini olish** bo‘yicha 2022 yil “25” oktyabrdagi 10-sonli shartnoma bahosi QQS **bilan 17 500 000 (o`n yeti million besh yuz ming)** so‘mni tashkil qiladi.

Ushbu bayonnoma Buyurtmachi va Bajaruvchi o‘rtasida o’zaro hisob–kitoblarni amalga oshirish uchun asos hisoblanadi.

**“Buyurtmachi”**

**Olmaliq shahar**
**Obodonlashtirish boshqarmasi**

Toshkent viloyati Olmaliq shaxri,
Olmaliq ko’chasi, 2-uy,
Sh/x: 401722860274047045201110006
INN: 200 603 271
O’zbekiston Respublikasi Moliya
Vazirligi G’aznachiligining
Amaliyot Boshqarmasi
x/r: 2340 2000 3001 0000 1010
MFO 00014 INN 201129919

**Rahbar ____________ K.Rahimov**

**“Bajaruvchi”**

**«Construction Measuring Company»**
**mas’uliyati cheklangan jamiyati**

г.Ташкент М-Улугбекский р-н
ул.М.Юсуф дом-56
Tel: +99871-2683945
Н/r: 2020 8000 6008 3966 3001
АКБ «Капитал банк» М-Улугбекский ф-л
MFO: 01018
INN: 305 287 288

**Direktor ____________ I.To`rabekova**

2022-yil «25» oktyabrdagi
10-sonli shartnomaga 2- ilova

**Toshkent viloyati Olmaliq shahar Muqumiy Mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi Muqumiy ko`chasini asfaltlash uchun loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chiqish va ijobiy ekspertiza xulosasini olish**

## BAJARISH VA MOLIYALASHTIRISH JADVALI

so'm

| № | Bajariladigan ishlarning nomi | Qiymati | Bajarish | | Moliyalashtirish muddati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | muddati | qiymati | 2022 yil |
| | Avans miqdori | | | | 5 250 000 |
| 1 | Loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chiqish va ijobiy ekspertiza xulosasini olish | 17 500 000 | *2022 yil* | 17 500 000 | 12 250 000 |
| | **Jami:** | **17 500 000** | | **17 500 000** | **17 500 000** |

**Buyurtmachi** _____________ **Bajaruvchi** _____________

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

MM5837561478

**1.** Loyihaning turi : Shartnoma

**2.** Loyihaning nomi: **Olmalik shaxar Mukumiy MFY Mukumiy kuchasini asfaltlash uchun loyiha-smeta ishlarini bajarish**

**3.** Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: "OLMALIQ SHAHAR OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI" DAVLAT MUASSASASI tomonidan 25.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Olmaliq shaxar yuridik markaz bosh yuristkonsulti:**

**K.F.NODIROVA**
26.10.2022

**Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 161556 на приобретение Олмалик шахар Мукумий МФЙ Мукумий кучасини асфалтлаш учун смета лойиха хужжатларини тайёрлаш ва Шахарсозлик хужжатлари экспертизаси ДУКдан экспертизадан утказиш,,,,,,**

Способ проведения электронный

Дата 20.10.2022

Время рассмотрения 19.10.2022 23:54

Закупочная комиссия Олмалик шахар Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Член комиссии** | VALIYEV XAYRULLA ERGASHOVICH | Обектларни саклаш булим бошлиги | Комиссия аъзоси |
| **Секретарь комиссии** | ERGASHEVA MUXLISA ABDIRAZOQ QIZI | Омбор мудираси | Комиссия аъзоси |
| **Член комиссии** | RAXMANOV BAXTIYOR XALJURABEKOVICH | Бош мухандис | Комиссия котиби |
| **Член комиссии** | ALIJONOV ARSLONBEK DONIYOR O'G'LI | Мухандис | Комиссия аъзоси |
| **Председатель комиссии** | RAXIMOV KUDRATJON KOMILOVICH | Рахбар | Комиссия раиси |
| **Член комиссии** | BAKIROV JAMOLIDDIN KAMOLIDDIN O'G'LI | Инфратузулма булим бошлиги | комиссия аъзоси |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 20.10.2022 года № лота 161556.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 20

Предмет закупки:

| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Услуга по разработке проектно-сметных работ** |
|---|---|
| Подробное описание | Олмалик шахар Мукумий МФЙ Мукумий кучасини асфалтлаш |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 18 000 000.00 |
| Стартовая сумма | 18 000 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Ташкилотнинг Лицензия ва гувохномалар, НДС туловчиси буса гувохномаси

Тип: Бинарное значение

Описание: Ташкилотнинг Лицензия ва гувохномалар, НДС туловчиси буса гувохномаси

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| "MODERN ROAD PROJECT" mas`uliyati cheklangan jamiyati | 20 | 1 | 6 | Экспертная | | |
| YO`L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ | 20 | 1 | 5 | Экспертная | | |
| OOO OPTIMAL ARCHITECT GROUP | 20 | 1 | 5 | Экспертная | | |
| OOO CONSTRUCTION MEASURING CO | 20 | 1 | 20 | Экспертная | | |
| ARCHIPELAG MCHJ | 20 | 1 | 15 | Экспертная | | |
| LUCKY REBIRTH | 20 | 1 | 5 | Экспертная | | |
| OOO FREIGHT SERVICES | 20 | 1 | 10 | Экспертная | | |
| OOO RAVON LOYIHA LUX | 20 | 1 | 10 | Экспертная | | |

Критерий №2 Инсофсиз ижрочи реесторида мавжудмаслиги тугрисида

Тип: Бинарное значение

Описание: Инсофсиз ижрочи реесторида мавжудмаслиги тугрисида

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| "MODERN ROAD PROJECT" mas`uliyati cheklangan jamiyati | 20 | 1 | 8 | Экспертная | | |
| YO`L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ | 20 | 1 | 10 | Экспертная | | |
| OOO OPTIMAL ARCHITECT GROUP | 20 | 1 | 5 | Экспертная | | |
| OOO CONSTRUCTION MEASURING CO | 20 | 1 | 20 | Экспертная | | |
| ARCHIPELAG MCHJ | 20 | 1 | 10 | Экспертная | | |
| LUCKY REBIRTH | 20 | 1 | 5 | Экспертная | | |
| OOO FREIGHT SERVICES | 20 | 1 | 10 | Экспертная | | |
| OOO RAVON LOYIHA LUX | 20 | 1 | 10 | Экспертная | | |

Критерий №3 Иш тажрибаси

Тип: Бинарное значение

Описание: Иш тажрибаси

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| "MODERN ROAD PROJECT" mas`uliyati | 20 | 1 | 7 | Экспертная | | |

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| cheklangan jamiyati | | | | | | |
| YO`L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ | 20 | 1 | 10 | Экспертная | | |
| OOO OPTIMAL ARCHITECT GROUP | 20 | 1 | 10 | Экспертная | | |
| OOO CONSTRUCTION MEASURING CO | 20 | 1 | 20 | Экспертная | | |
| ARCHIPELAG MCHJ | 20 | 1 | 5 | Экспертная | | |
| LUCKY REBIRTH | 20 | 1 | 10 | Экспертная | | |
| OOO FREIGHT SERVICES | 20 | 1 | 5 | Экспертная | | |
| OOO RAVON LOYIHA LUX | 20 | 1 | 5 | Экспертная | | |

Критерий №4 Бажариб бериш муддати 10 кундан ошмаслиги керак

Тип: Бинарное значение

Описание: Бажариб бериш муддати 10 кундан ошмаслиги керак

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| "MODERN ROAD PROJECT" mas`uliyati cheklangan jamiyati | 20 | 1 | 5 | Экспертная | | |
| YO`L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ | 20 | 1 | 5 | Экспертная | | |
| OOO OPTIMAL ARCHITECT GROUP | 20 | 1 | 5 | Экспертная | | |
| OOO CONSTRUCTION MEASURING CO | 20 | 1 | 20 | Экспертная | | |
| ARCHIPELAG MCHJ | 20 | 1 | 5 | Экспертная | | |
| LUCKY REBIRTH | 20 | 1 | 10 | Экспертная | | |
| OOO FREIGHT SERVICES | 20 | 1 | 10 | Экспертная | | |
| OOO RAVON LOYIHA LUX | 20 | 1 | 10 | Экспертная | | |

Критерий №5 Солик инспекциясидан карздорлик мавжуд эмаслиги тугрисида маълумот

Тип: Бинарное значение

Описание: Солик инспекциясидан карздорлик мавжуд эмаслиги тугрисида маълумот

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| "MODERN ROAD PROJECT" mas`uliyati cheklangan jamiyati | 20 | 1 | 14 | Экспертная | | |

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| YO`L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ | 20 | 1 | 5 | Экспертная | | |
| ООО OPTIMAL ARCHITECT GROUP | 20 | 1 | 10 | Экспертная | | |
| ООО CONSTRUCTION MEASURING CO | 20 | 1 | 20 | Экспертная | | |
| ARCHIPELAG MCHJ | 20 | 1 | 5 | Экспертная | | |
| LUCKY REBIRTH | 20 | 1 | 10 | Экспертная | | |
| ООО FREIGHT SERVICES | 20 | 1 | 5 | Экспертная | | |
| ООО RAVON LOYIHA LUX | 20 | 1 | 5 | Экспертная | | |

Критерий №6 Лойихачининг моляивий холати банкдан айланма маблаглари тугрисида маълумотнома

Тип: Бинарное значение

Описание: Лойихачининг моляивий холати банкдан айланма маблаглари тугрисида маълумотнома

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| "MODERN ROAD PROJECT" mas`uliyati cheklangan jamiyati | 20 | 1 | 12 | Экспертная | | |
| YO`L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ | 20 | 1 | 10 | Экспертная | | |
| ООО OPTIMAL ARCHITECT GROUP | 20 | 1 | 10 | Экспертная | | |
| ООО CONSTRUCTION MEASURING CO | 20 | 1 | 20 | Экспертная | | |
| ARCHIPELAG MCHJ | 20 | 1 | 10 | Экспертная | | |
| LUCKY REBIRTH | 20 | 1 | 5 | Экспертная | | |
| ООО FREIGHT SERVICES | 20 | 1 | 5 | Экспертная | | |
| ООО RAVON LOYIHA LUX | 20 | 1 | 5 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| ООО RAVON LOYIHA LUX | 18 000 000.00 | 7 600 000.00 UZS | 7 600 000.00 | 00.00 | 7 600 000.00 | 17.10.2022 11:28:27 | 20 |
| ООО FREIGHT SERVICES | 18 000 000.00 | 13 000 000.00 UZS | 13 000 000.00 | 00.00 | 13 000 000.00 | 17.10.2022 11:09:09 | 11.69231 |
| ARCHIPELAG MCHJ | 18 000 000.00 | 10 700 000.00 UZS | 10 700 000.00 | 00.00 | 10 700 000.00 | 17.10.2022 08:06:10 | 14.20561 |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **YO`L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ** | 18 000 000.00 | 14 000 571.00 UZS | 14 000 571.00 | 00.00 | 14 000 571.00 | 13.10.2022 15:00:16 | 10.8567 |
| **LUCKY REBIRTH** | 18 000 000.00 | 12 000 000.00 UZS | 12 000 000.00 | 00.00 | 12 000 000.00 | 17.10.2022 09:49:01 | 12.66667 |
| **ООО OPTIMAL ARCHITECT GROUP** | 18 000 000.00 | 8 820 000.00 UZS | 8 820 000.00 | 00.00 | 8 820 000.00 | 14.10.2022 17:11:04 | 17.23356 |
| **ООО CONSTRUCTION MEASURING CO** | 18 000 000.00 | 17 500 000.00 UZS | 17 500 000.00 | 00.00 | 17 500 000.00 | 15.10.2022 12:02:22 | 8.68571 |
| **"MODERN ROAD PROJECT" mas`uliyati cheklangan jamiyati** | 18 000 000.00 | 10 000 000.00 UZS | 10 000 000.00 | 00.00 | 10 000 000.00 | 10.10.2022 14:52:33 | 15.2 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| **ООО RAVON LOYIHA LUX** | 30 | 20 | 50 |
| **ООО FREIGHT SERVICES** | 30 | 11.69231 | 41.69231 |
| **ARCHIPELAG MCHJ** | 33.3336 | 14.20561 | 47.53921 |
| **YO`L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ** | 30 | 10.8567 | 40.8567 |
| **LUCKY REBIRTH** | 30 | 12.66667 | 42.66667 |
| **ООО OPTIMAL ARCHITECT GROUP** | 30 | 17.23356 | 47.23356 |
| **ООО CONSTRUCTION MEASURING CO** | 80 | 8.68571 | 88.68571 |
| **"MODERN ROAD PROJECT" mas`uliyati cheklangan jamiyati** | 34.6664 | 15.2 | 49.8664 |

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 161556 от 20.10.2022 года на приобретение Олмалик шахар Мукумий МФЙ Мукумий кучасини асфалтлаш учун смета лойиха хужжатларини тайёрлаш ва Шахарсозлик хужжатлари экспертизаси ДУКдан экспертизадан утказиш,,,,,, определила победителем:

ООО CONSTRUCTION MEASURING CO
305287288

и резервный исполнитель: ООО RAVON LOYIHA LUX (306997298)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | RAXIMOV KUDRATJON KOMILOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | RAXMANOV BAXTIYOR XALJURABEKOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | ALIJONOV ARSLONBEK DONIYOR O‘G‘LI | Согласен | |
| **Член комиссии** | BAKIROV JAMOLIDDIN KAMOLIDDIN O‘G‘LI | Согласен | |
| **Член комиссии** | VALIYEV XAYRULLA ERGASHOVICH | Согласен | |

**161556 лот юзасидан шаклланган дастлабки баённоманинг муҳокамаси натижаси бўйича расмийлаштирилган электрон баённомаси**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 20 майдаги 276-сонли қарорига асосан дастлабки электрон баённома у расмийлаштирилган кундан бошлаб давлат харидларининг электрон тизимида муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди.

Икки иш куни ичида иштирокчилар томонидан танлаш (тендер) ўтказиш натижалари бўйича эътирозлар тушмаганлиги тўғрисида харид комиссияси аъзолари тегишли қарор қабул қилди.

Муҳокама тугаган сана: 24.10.2022 14:34

Комиссия раиси: RAXIMOV KUDRATJON KOMILOVICH

“Тасдиқлайман”

Олмалиқ шаҳар Ободонлаштириш

Бошкармаси бошлиғи

__________ К.К.Рахимов

“_____” __________ 2022 йил.

# Йиғилиш баённомаси № 14

Олмалиқ шаҳар Ободонлаштириш бошқармаси Олмалиқ шахар хокимлигининг 2022 йил 21 апрельдаги 50-37-10-147-К/22-сонли карори ва жамоачилик фикри асосида шаклланган тадбирлар буйича, Олмалиқ шахар “Муқумий” МФЙ кўчасини асфалтлаш учун смета лойиха хужжатларини таёрлаш ва Шахарсозлик хужжатлари экспертизаси ДУК дан экспертизасидан ўтказиш билан 2022 йилнинг 10 октябда 22110012161556 лот рақамли Давлат харидлари махсус порталига эълон жойлаштирилган, бу лот (22110012161556) орқали **“OOO RAVON LOYIHA LUK” “OOO FREIGHT SERVICES”, “ARCHIPELAG MCHJ” “YO’L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ” “LUCRY REBIRTH” “OOO OPTIMAL ARCHITECT GROUP” “OOO CONSTRUCTION MEASSURING CO” “MODERNA ROAD PROJECT” MCHJ** корхоналари ўз таклифларини билдириб иштирок этишди. Эълон муддати 2022 йилнинг 17 **октябр** якунланди ва тузилган комиссия аъзолари томонидан **“OOO CONSTRUCTION MEASSURING CO”** корхонасининг берилган талабларимизга мос равишда эканлиги кўриб чикилди ва шу корхонага овоз берилиб, ғолиб деб эълон қилинди. Ғолиб аниқлангандан сўнг, 2 кун муддатда мухокамада турганда бошқа корхоналардан хеч қандай эътирозлар билдирилмади. Юқоридагиларни ҳисобга олган холда танлов комиссияси томонидан Олмалиқ шахар “Муқумий” МФЙ кўчасини асфалтлаш учун смета лойиха хужжатларини таёрлаш ва Шахарсозлик хужжатлари экспертизаси ДУК дан экспертизасидан ўтказиш билан **“OOO CONSTRUCTION MEASSURING CO”** корхонаси билан шартнома тузишга қарор қилинди.

**Комиссия аъзолари:** Раис: __________ К.Рахимов

Котиба: __________ М.Эргашева

Комиссия аъзолари: __________ Б.Рахмонов

__________ Х.Валиев

__________ А.Алижонов

__________ Ж.Бакиров

# XALQ DEPUTATLARI OLMALIQ SHAHAR KENGASHINING
# Q A R O R I

2022 - yil 27 - sentabr VI-58-96-10-147-K/22 Olmaliq shahar hokimligi

**Jamoatchilik fikri asosida shakllangan va ovoz berish yakuniga ko‘ra 2022 - yil 2 - mavsum “G‘olib” takliflarni tanlab olish hamda ularga mablag‘ yo‘naltirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli, 2022-yil 4-apreldagi PQ-197-sonli qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini tizimli ravishda tashkil qilib borish zarurligi va yuqoridagi qarorlardan kelib chiqqan holda, Xalq deputatlari shahar Kengashining 2022-yil 26-fevraldagi VI-48-16-10-147-K/22-son qarori va unga asosan hozirgi kunga qadar amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma’lumot berilib, 2022-yil rejalari tasdiqlangan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-sonli qaroriga muvofiq, Olmaliq shahariga fuqarolarni qiynab kelayotgan muammolar bo‘yicha takliflarni moliyalashtirish uchun mahalliy budjetning 2,5 foizi hamda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan jami bo‘lib 6 mlrd 388 mln so‘m mablag‘ “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” maxsus g‘azna hisobvarag‘ida shakllantirilganligi Moliya vazirligi tomonidan ochilgan “Ochiq budjet” (openbudjet.uz) portalida 2022-yil 15-iyuldan 3-avgustga qadar bo‘lgan davrda shahar fuqarolari tomonidan jami 62 mlrd 396 mln so‘mlik 113 ta taklif kiritilganligi va takliflar “Ishchi komissiya”ning 2022-yil 22-avgustdagi yig‘ilishida ushbu takliflar komissiya a’zolari tomonidan loyiha qiymatlari qayta ko‘rib chiqilib;

19 mlrd 305 mln so‘mlik 32 ta taklif takroriy va belgilangan tartibga zid ekanligi sababli rad etilgan takliflar bo‘yicha taklif bergan shaxsning shaxsiy kabinetiga rad etish sabablari to‘g‘risida xabarnoma yuborilgan;

Tanlab olingan 43 mlrd 091 mln so‘mlik 81 ta takliflar, ma’sullar tomonidan qayta hisob-kitoblar qilinib, loyihalar miqdori 29 mlrd 019 mln so‘m qilib belgilangan holda, jamoatchilik o‘rtasida yigirma besh kun davomida ovoz berish jarayoniga ruxsat berildi va ovoz berish jarayoni joriy yig‘ilish 24-avgustdan 17-sentabrga qadar etib belgilangan edi.

Fuqarolar tomonidan ovoz berish jarayoniga ruxsat etilgan 81 ta taklifga jami 9 391 ta ovoz berildi.

Ovoz berish yakuniga ko‘ra, Moliya Vazirligining 2021-yil 6-sentabr kungi “Tuman va shaharlarda fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflar asosida g‘oliblarni aniqlash yuzasidan” qo‘llanmasi talablari asosida jamg‘armada shakllangan mablag‘ doirasida “**Eng ko‘p”** ovoz olganlardan boshlab, pastga qarab, 15 ta taklif **“G‘olib”** deb topilib, ushbu takliflarning qiymati 5 mlrd 850,0 mln so‘mni tashkil etmoqda.

G‘olib takliflarni moliyalashtirish tegishlicha Xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan tasdiqlangan manzilli ro‘yxat asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining ko‘payishi yoki loyihaning o‘zgartirilishi bilan bog‘liq o‘zgartirishlar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Jamg‘armada ushbu mablag‘ ajratilgan taqdirda 538,0 mln so‘m mablag‘ qoldiq qolmoqda.

Shahar budjetning jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag‘larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga Ishchi komissiya a’zolari shaxsan javobgarligi eslatib o‘tildi.

Kun tartibidagi masalalarni ko‘rib chiqib, Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-5072-sonli va Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22- apreldagi KQ-213-IV-sonli qarorida belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan Olmaliq shahar Moliya boʻlimi mudiri Dilmurod Umarovning hisoboti maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Komissiya aʼzolari oʻz xulosalariga asosan:

Moliya Vazirligining 2021-yil 6-sentabrdagi “Tuman va shaharlarda fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflar asosida gʻoliblarni aniqlash yuzasidan” qoʻllanmasi talablari hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi PQ-197-sonli qarori asosida “**Eng koʻp”** ovoz olgan, 15 ta taklif “**Gʻolib**” deb topilib, ushbu takliflarning qiymati 5 mlrd 850,0 mln soʻm miqdorida **1-ilovadagi** manzilli roʻyhat asosida tasdiqlansin va ijro uchun qabul qilinsin.

**Belgilab qoʻyilsinki,**

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish boʻyicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining koʻpayishi yoki loyihaning oʻzgartirilishi bilan bogʻliq oʻzgartirishlar kiritilishiga yoʻl qoʻyilmasin;

Buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablagʻlarni, loyiha-smeta hujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishini va amalga oshirilgan ishlar boʻyicha Xalq deputatlari shahar Kengashi va shahar hokimligi huzuridagi ishchi guruhga har 15 kunda maʼlumot kiritib boradi.

3. Shahar hokimligi Moliya boʻlimi (D.Umarov) shahar hokimligi axborot xizmati (D.Roʻziyeva) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va “**Gʻolib**” deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirishi hamda amalga oshirilishi lozim ishlar boʻyicha maʼlumotlarni keng jamoatchilikka va shahar hokimligi **“veb-sayti”**da muntazam yoritib borilishini taʼminlasin.

4. Shahar hokimligi Moliya boʻlimi (Moderator:D.Abduqaxorov) maʼlumotlarni belgilangan tartibda “Open budjet” portaliga joylashtirilib borilishini taʼminlasin.

5. Shahar budjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yoʻnaltirilgan mablagʻlarining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablagʻlarning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga Ishchi komissiya aʼzolari shaxsan javobgarligi

eslatib o‘tilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy isloxatlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi Sh.Ziyaxojayev zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash rahbari** **К. Хамдамов**

Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining
2022 yil 27 sentabrdagi
VI-58-96-10-147-K/22-son qaroriga
1-ilova

**Olmaliq shahar bo‘yicha 2022-yil 2-mavsumda jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo‘yicha**

**MANZILLI RO‘YXAT**

**mln.so‘mda**

| № | G‘olib taklif ma’lumotlari | | | Amalga oshirishning aniqlangan qiymati | Xaqiqatda ajratilgan* | (FTJ, qo‘shimcha manbaa, byudjet parametri) | Buyurtmachi tashkilot |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Taklif ID raqami | Qisqacha mazmuni | To‘plagan ovozlari soni | | | | |
| | "Fuqorolar tashabbusi jamg'armasi"da shakillangan mablag‘ | | | | 6 388.0 | X | X |
| 1 | 1780600099 | Olmaliq shahar Bolalar shifoxonasining fasad qismini ta’mirlash | 1446 | 500 | 500 | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi | Olmaliq shahar Tibbiyot birlashmasi |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 2 | 1780600004 | Olmaliq shahar “Navro‘z” MFY “Tong” va “Saodat” ichki ko‘chalarini asfaltlash va ta’mirlash | 1312 | 700 | 700 | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi | Olmaliq shahar hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi |
| 3 | 1780600012 | Olmaliq shahar 3-DMTTning o‘yin ayvonchalarini ta’mirlash. | 1073 | 200 | 200 | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi | Olmaliq shahar Maktabgacha ta’lim bo‘limi |
| 4 | 1780600111 | Olmaliq shahar 21-sonli davlat umumiy o‘rta ta’lim maktabining moddiy texnik ba’zasini yaxshilash | 531 | 100 | 100 | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi | Olmaliq shahar Xalq ta’limi bo‘limi |
| 5 | 1780600046 | Olmaliq shahar 12- sonli davlat umumiy o‘rta ta’lim maktabida ta’lim sifatini yaxshilash uchun interaktiv doskalar sotib olish | 491 | 50 | 50 | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi | Olmaliq shahar Xalq ta’limi bo‘limi |
| *6* | 1780600044 | Olmaliq shahar 2-sonli davlat umumiy o‘rta ta’lim maktabi moddiy texnik bazasini yaxshilash. | 488 | 50 | 50 | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi | Olmaliq shahar Xalq ta’limi bo‘limi |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 7 | 1780600005 | Olmaliq shahar “Tinchlik” MFY dagi ko‘chalarga (kanalizatsiya) Oqova quvurlarini o‘rnatish. | 434 | 1000 | 1000 | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi | Olmaliq shahar hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi |
| 8 | 1780600015 | Olmaliq shahar “Gultepa” MFY ichki ko‘chalarni ta’mirlash “Berk Gultepa” 150 metr, 1-tor “Andijon” 550 metr, “Majnuntol” 200 metr “Berk Qalmoqir” 400 metr, Jami 1300 metrni asfaltlash. | 363 | 700 | 700 | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi | Olmaliq shahar hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi |
| 9 | 1780600007 | Olmaliq shahar “Muqumiy” MFY “Muqumiy” ko‘chasini asfaltlash. | 318 | 600 | 600 | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi | Olmaliq shahar hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi |
| 10 | 1780600063 | Olmaliq shahar “Musa Jalil” MFY xududidagi ariq va zovurlarni tamirlash. | 315 | 350 | 350 | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi | Olmaliq shahar hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi |
| 11 | 1780600053 | Olmaliq shahar "Oltin" MFY, “OTMK-50 yilligi”, “Pushkin” va “Faxriylar” ko‘chalarini asfaltlash. | 297 | 600 | 600 | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi | Olmaliq shahar hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 12 | 1780600060 | Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali o‘quv xonalarini Multisensor displey “ViewSonic IFP8650” doskalari bilan ta’minlash. | 270 | 150 | 150 | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi | Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali |
| 13 | 1780600032 | Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali binolarini ta’mirlash, Quyosh panellarini hamda Quyosh suv isitgichlari bilan ta’minlash. | 197 | 200 | 200 | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi | Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali |
| 14 | 1780600034 | Olmalik shahar aholisiga sifatli va bepul tibbiy xizmat ko'rsatish maqsadida Tibbiyot birlashmasida mavjud MRT tibbiy apparatini ta’mirlash. | 169 | 150 | 150 | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi | Olmaliq shahar Tibbiyot birlashmasi |
| 15 | 1780600009 | Olmaliq shahar “Bo‘ston” MFY 1,2,5-daxalardagi ichki ko‘chalarni asfalt qilish. | 139 | 500 | 500 | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi | Olmaliq shahar hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi |
| **Jami yo‘naltirilgan mablag'** | | | | | **5 850.0** | **X** | **X** |
| **Taqsimlanmagan mablag‘** | | | | | **538.0** | **X** | **X** |

"ТАСДИҚЛАЙМАН"
Халқ депутатлари шаҳар
Кенгаши раиси
_________ Қ.Хамдамов

# Олмалиқ шаҳар бўйича 2022 йилнинг 2 мавсумида жамоатчилик фикри асосида шаклланган тадбирларни молиялаштириш бўйича МАНЗИЛЛИ РЎЙХАТ

минг сўмда

| № | Ғолиб таклиф маълумотлари | | | | Амалга оширишнинг аниқланган қиймати | Молиялаштириш манбаси (ФТЖ, қўшимча манба, бюджет параметри) | Буюртмачи ташкилот | Харид қилиш тартиби |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Таклиф ID рақами | Таклиф манзили | Қисқача мазмуни | Тўплаган овозлари сони | | | | |
| "Фуқаролар ташаббуси жамғармаси"да шаклланган маблағ | | | | 7,843.0 | 5,850,000.0 | X | X | X |
| 1 | 1780600099 | Ибн Сино МФЙ Улуғбек 51 | Олмалиқ шаҳар Болалар шифохонасини фасад қисмини таъмирлаш | 1446 | 500,000.0 | Фуқаролар ташаббуси жамғармаси | Олмалиқ шаҳар Тиббиёт бирлашмаси | энг яхши таклифларни танлаш |
| 2 | 1780600004 | Наврўз МФЙ Тонг кучаси Саодат кўчаси | Олмалик шаҳар Наврўз МФЙ Тонг ва Саодат ички кўчаларини асфалтлаш ва таъмирлаш | 1312 | 700,000.0 | Фуқаролар ташаббуси жамғармаси | Ободонлаштириш бошқармаси | энг яхши таклифларни танлаш |
| 3 | 1780600012 | Коинот МФЙ Фахрийлар 26 | Олмалиқ шаҳар 3-ДМТТни ўйин айвончаларини таъмирлаш. Ташқи фасадни таъмирлаш. | 1073 | 200,000.0 | Фуқаролар ташаббуси жамғармаси | Олмалиқ шаҳар Мактабгача таълим бўлими | энг яхши таклифларни танлаш |
| 4 | 1780600111 | Мирзо Улуғбек МФЙ Бирдамлик 11 | Олмалиқ шаҳар 21-мактабининг моддий техник баъзасини яхшилаш. | 531 | 100,000.0 | Фуқаролар ташаббуси жамғармаси | Олмалиқ шаҳар Халқ таълими бўлими | энг яхши таклифларни танлаш. Электрон дўкон |
| 5 | 1780600046 | Тинчлик МФЙ Тумарис 4 | Олмалиқ шаҳар 12-умумий ўрта таълим мактабида таълим сифатини яхшилаш учун интерактив доскалар харид қилиш. | 491 | 50,000.0 | Фуқаролар ташаббуси жамғармаси | Олмалиқ шаҳар Халқ таълими бўлими | энг яхши таклифларни танлаш. Электрон дўкон |
| 6 | 1780600044 | А Навоий МФЙ 5/2 Массив | Олмалиқ шаҳар 2-умумий ўрта таълим мактаби моддий техник базасини яхшилаш. | 488 | 50,000.0 | Фуқаролар ташаббуси жамғармаси | Олмалиқ шаҳар Халқ таълими бўлими | энг яхши таклифларни танлаш. Электрон дўкон |
| 7 | 1780600005 | Тинчлик МФЙ. Қушбеги, Алпомиш (марказий кўча), Заркайнар (марказий кўча), Чирчик, Тонг кўчаси, Заковат, Есенин, Шабада, 2 пер Шабада, 3.Қўшбой қизи, 1 пер шабада, Пискент, пер Алпомиш, Бахор тор кўча, Бахор, Чўлпон, Шарқ тор кўчалари | Олмалиқ шаҳар Тинчлик МФЙ даги кўчаларга (канализация) Оқава қувурларини ўрнатиш | 434 | 1,000,000.0 | Фуқаролар ташаббуси жамғармаси | Ободонлаштириш бошқармаси | энг яхши таклифларни танлаш |
| 8 | 1780600015 | Гултепа МФЙ Берк гултепа, Андижон, Мажнунтол, Берк калмакир | Олмалиқ шаҳар Гултепа МФЙ ички кўчаларни таъмирлаш Берк гултепа 150 метр 1-тор Андижон 550 метр Мажнунтол 200 метр Берк калмакир 400 метр Жами 1300 метрни асфалтълаш. | 363 | 700,000.0 | Фуқаролар ташаббуси жамғармаси | Ободонлаштириш бошқармаси | энг яхши таклифларни танлаш |
| 9 | 1780600007 | Муқимий МФЙ Муқимий | Олмалик шаҳар Муқимий МФЙ Муқимий кўчасини асфалтълаш | 318 | 600,000.0 | Фуқаролар ташаббуси жамғармаси | Ободонлаштириш бошқармаси | энг яхши таклифларни танлаш |
| 10 | 1780600063 | Мусо Жалил МФЙ Ибн Сино кўчаси 16 та кўп қаватли уйлар олди | Олмалик шаҳар "Мусо Жалил" МФЙ худудидаги арик ва зовурларни таъмирлаш. | 315 | 350,000.0 | Фуқаролар ташаббуси жамғармаси | Ободонлаштириш бошқармаси | энг яхши таклифларни танлаш |

| Ғолиб таклиф маълумотлари | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| № | Таклиф ID рақами | Таклиф манзили | Қисқача мазмуни | Тўплаган овозлари сони | Амалга оширишнинг аниқланган қиймати | Молиялаштириш манбаси (ФТЖ, қўшимча манба, бюджет параметри) | Буюртмачи ташкилот | Харид қилиш тартиби |
| 11 | 1780600053 | Олтин МФЙ ОТМК-50 йиллиги, Пушкин кўчаси, Фахрийлар кўчаси | Олмалиқ шахар "Олтин" МФЙ ОТМК-50 йиллиги, Пушкин ва Фахрийлар кучаларини асфалтьлаш. | 297 | 600,000.0 | Фукаролар ташаббуси жамғармаси | Ободонлаштириш бошқармаси | энг яхши таклифларни танлаш |
| 12 | 1780600060 | Хамза МФЙ Улуғбек кўчаси 45 | Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника университети Олмалиқ филиали укув хоналарини Мультисенсорный дисплей ViewSonic IFP8650 доскалари билан таъминлаш. | 270 | 150,000.0 | Фукаролар ташаббуси жамғармаси | И Каримов номидаги ТДТУ Олмалиқ филиали | энг яхши таклифларни танлаш. Электрон дўкон |
| 13 | 1780600032 | Хамза МФЙ Улуғбек кўчаси 45 | Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника университети Олмалиқ филиали биноларини таъмирлаш, Қуёш панелларини ҳамда Қуёш сув иситгичлари билан таъминлаш. | 197 | 200,000.0 | Фукаролар ташаббуси жамғармаси | И Каримов номидаги ТДТУ Олмалиқ филиали | энг яхши таклифларни танлаш. Электрон дўкон |
| 14 | 1780600034 | Ибн Сино МФЙ Улуғбек 51 | Олмалиқ шахар аҳолисига сифатли ва бепул тиббий хизмат кўрсатиш мақсадида Тиббиёт бирлашмасида мавжуд МРТ тиббий апаратини таъмирлаш. | 169 | 150,000.0 | Фукаролар ташаббуси жамғармаси | Олмалиқ шаҳар Тиббиёт бирлашмаси | энг яхши таклифларни танлаш |
| 15 | 1780600009 | Бўстон МФЙ 1,2,5 даҳалар | Олмалиқ шахар Бўстон МФЙ 1-2-5-даҳалардаги ички кўчаларни асфалтъ қилиш. | 139 | 500,000.0 | Фукаролар ташаббуси жамғармаси | Ободонлаштириш бошқармаси | энг яхши таклифларни танлаш |
| **Тақсимланмаган маблағ** | | | | | **538,000.0** | **X** | **X** | **X** |

**Олмалиқ шаҳар ҳокимининг молия-иқтисодиёт ва камбағалликни қисқартириш масалалари бўйича 1-ўринбосари** ____________ имзо **Ш.Бегиев**

**Олмалиқ шаҳар ҳокимининг қурилиш, экология ва кўкаламзорлаштириш масалалари бўйича ўринбосари в.в.б** ____________ имзо **З.Кенжаев**

**Олмалиқ шаҳар ҳокимининг ижтимоий ривожлантириш, маънавий-маърифий ишлари бўйича ўринбосари** ____________ имзо **С.Ахмедов**

**Олмалиқ шаҳар маҳалла ва нуронийлар бўлими бошлиғи** ____________ имзо **Х.Камолов**

**Олмалиқ шаҳар ҳокимлиги Молия бўлими мудири** ____________ имзо **Д.Умаров**

**Олмалиқ шаҳар Ғазначилик бўлинмаси бошлиғи ўринбосари** ____________ имзо **А.Тўхтабоев**

**Олмалиқ шаҳар Ободонлаштириш бошқармаси бошлиғи** ____________ имзо **Қ.Раҳимов**

**Олмалиқ шаҳар Халқ таълими бўлими мудири** ____________ имзо **Ғ.Хамиров**

**Олмалиқ шаҳар Мактабгача таълим бўлими мудири** ____________ имзо **Г.Холбаева**